

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**UCHQUN NAZAROVNING “CHAYON YILI” ROMANIDA AYOL OBRAZI VA  
RUHIYATI**

**Osiyoxon Hoshimova Yolqinjon qizi**

*FarDU filologiya fakulteti*

*o‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mahoratlari yozuvchi Uchqun Nazarovning roman yozish mahorati hamda asardagi ayol qahramonlar misolida jamiyat va inson taqdiri xususida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *obraz, timsol, badiiy mahorat, qahramon, muallif, jamiyat, ayol ruhiyati.*

Har bir xalq, millatning go‘zallik haqida o‘z qarashlari bor; gulga, tabiatga, hayotga, insonlarga va , albatta, AYOL shaxsiyatiga. Aynan shu mavzular adabiyotga kirib kelganda qarashlar yanada teranlashib, nigohlar o‘tkirlashadi. Jahon adabiyotida ham o‘zbek adabiyotida ham har bir kichik asarlardan toki katta romanlargacha ayollar obrazi yoritilgan.

Darhaqiqat, adabiyot inson va uning qalbini o‘rganuvchi fandir. Aytish mumkinki, adabiyotda turli mavzu va qarashlar ko‘p, ammo ularning tag zamirini qarasak, barchasi ayol va uning tevaragida aylanadi. Hatto mavzusi hayotni anglashga qaratilgan asarlarning ham mag‘zi birinchi navbatda, ayolni anglashga qaratiladi. “To‘g‘ri, so‘z san‘atida ota-onaga muhabbat, tabiat go‘zalligi, halollik, bolalarni sevish, yovlarga nafrat... kabi o‘nlab mavzular bor, bularning har biri ming yillardan beri yuzlab xalqlarning so‘z san‘atida chuqur, har taraflama ishlangan. Ammo baribir, ularning hech biri ayol tasvirichalik mavqe kasb etmaydi. Shu ma’noda, insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto, aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq”.<sup>24</sup> Shunday ekan, bu mavzuni tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zero, “Ayol bo‘lmasa, adabiyot bo‘lmast edi. Adabiyot avvalo ayolga atab, ayol uchun, uning ko‘nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o‘zi - shuni anglash uchun yaralgan. Abdulla Qahhor aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So‘z san‘ati avvalboshi er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo‘ladi. Erkakni esa, tabiiyki, eng avvalo ayol qiziqtiradi. Shu bois, adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzusi – ayoldir”<sup>25</sup>.

Mahoratlari yozuvchi Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romanini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchining jamiyatdagi illatlarni yaxshi anglab, ularni ustalik bilan badiiy

<sup>24</sup> Isomiddinov Z. Ikki ayol//Tafakkur,2007,4-son/47-bet.

<sup>25</sup> Isomiddinov Z. Ikki ayol//Tafakkur,2007,4-son/47-bet.

obrazlarga singdira olganligining guvohi bo‘lamiz. Asar bilan tanishib chiqqan kitobxon qahramonlar hayotidagi muammolarga sabab faqatgina ularning o‘zлari emasligini tushunib yetadi. Quyida buning isboti sifatida asarning bosh qahramonlaridan biri Oynisa obrazi orqali o‘sha davr, o‘sha muhitning insonlar hayotiga qanchalik ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rib chiqamiz.

Asar Oynisa hayotinig tasviri bilan boshlanadi:

“Bu oqshom ham o‘choqqa o‘t yoqilmadi, qozon tuvog‘i ochilmadi, sovuqligicha qoldi. Ertalab non pattasiga arang olingen churraqdan bir shapalog‘ini Oynisa tejab qolgan edi, shuni qaynonasi va qizchasiga bo‘lishib berdi, o‘ziga ham ikki tishlamcha qo‘ydi...”. Bu jumlalar bosh obraz sifatida tasvirlangan Oynisa hayotining qaydarajada o‘gir ekanligini ko‘rsatib beradi.

Darhaqiqat, Oynisa – chinakam sabr-toqat timsoli. Asar davomida uning boshiga tushgan sinovlarni ko‘rib, ikkinchi jahon urushining bir ayol boshiga solmagan hech bir ishi qolmaganligining guvohi bo‘lamiz. Bu obraz orqali o‘sha davrdagi jamiyat, chirkin muhit , rahbarlarning savodsiz hamda uquvsizligi oqibatida necha-nechalab ayollar taqdiri shafqatsiz yakunlanganligi ochiqchasiga aks ettiriladi. Oynisaning hayoti sho‘x-shodon o‘ynab kulish o‘rniga otasining “xalq dushmani” sifatida noo‘rin ayblanib qamalishi, onasi bilan maddoh kimsalar tomonidan o‘z uyidan quvib chiqarilishi, yosh onasi musofirlikda jon berib, go‘ri yetti yot begona joylarda qolib ketishi kabi tashvishlar va o‘nlab quruq ayblovlar girdobida kechadi.

Oynisaning otasi Bahodir Yoqubov o‘n to‘qqizinchi otliq-kavaleriya divizionining harbiy komissari , obro‘yi baland, turli majlislar to‘rida o‘tiradigan odam edi. U kambag‘al oilasidan chiqqan, yoshligida batraklik qilgan, keyin inqilobi namoyishlarda qatnashgan. Oynisaning onasi ham o‘qimishli ayol edi, Samarqandda ta’sis etilgan “Hujum” uyushmasining eng tashabbuskor a’zolaridan biri bo‘lgan, ayollar orasida savodsizlikni yo‘qotish bo‘yicha amalga oshirilgan barnga tadbirlarda bevosita qatnashgan, “Likbez” komitetining eng g‘ayratli rahbarlaridan biri bo‘lgan, paranji tashlash harakatini boshqargan. Shunday sarkarda otasi benom-u nishon hazon bo‘ldi, olovdek yonib yangi turmush uchun jonbozlik ko‘rsatgan onasi badarg‘a qilinib, qaysi bir qishloqning is bosgan hujrasida chillashir kasaliga mutbalo bo‘lib , xo‘rlik va ochlikda o‘lib ketdi.

Shunday ota-onaning yagona farzandi Oynisaning o‘zi-chi? Yettinchi sinfni bitirish oldida turgan , skripka chalishga o‘rganayotgan qaldirg‘ochdek ma’sum deya ta’riflangan pokiza qizchaning taqdiri nima bo‘ldi? Qaysi aybi , qaysi gunohi uchun shuncha malomat-u nazomatlar chekishi, darbadar bo‘lishi kerak?

Samarqandda bo‘lgan bir voqeа Oynisaning xotirasidan hech ketmaydi. Komissar Yoqubovning uyiga o‘sha paytda katta imtiyoz hisoblangan radio tushirishdi. Oila a’zolari radiordan taralayotgan kuyni eshitib o‘tirishar, hech qanday xatardan darak ham yo‘q edi. Shu payt eshik qattiq taqilladi, onasi borib eshikni ochdi, uyga ikkita soqchi bilan dadasingning eng yaqin do‘stlaridan – Isroiljon kirib keldi. Isroiljon amal

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

jihatidan do'sti Bahodirdan sal pastroq edi. Birda Isroiljon Bahodirning "vengerka" deb ataluvchi qorako'l jiyakli yangi kiyimini maqtadi, havasi kelgandek bo'ldi. Shunda otasi uni shartta yechib, do'stining yelkasiga tashladi... Hozir eshik oldida turgan odam o'sha Isroiljon edi.

" – Isroiljon !.. – Arang tili kalimaga kelib, xitob qildi Bahodir.

– Isroiljon-pisroiljonn'i yig'ishtir! – dedi do'stiga o'dag'aylab Isroiljon. – Men GPU ning mas'ul xodimi Alimovman.

– Bilaman o'rtoq Alimov, – o'zini mutlaqo yo'qotib, g'o'ldiradi Bahodir.

– O'rtoq ham emasman! – Alimov bu so'zlarni talaffuz qilmas, bamisolli toshdek otardi. Qo'lingni ko'tar, josus!"

O'n besh yashar Oynisa "Xalq dushmani" degan iborani birinchi marta o'shanda eshitgan edi. Dadasini olib ketishgach, ertasi kuni ona-bola o'z paytining eng zamonaviy jihozlari bilan bezatilgan haydab chiqarilibgina qolmay, hatto o'zлari istagan tarafga yurish, turar joy axtarish huquqidan ham mahrum bo'lgan edilar. Oynisaning uqubatlarga to'la hayoti shu tarzda boshlandi.

Yuqorida keltirilgan Ismoiljon ismli shaxs orqali yozuvchi o'sha davrdagi maddoh, mansabparast kimsalarning umumlashma obrazini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Shu bilan bir qatorda asar davomida Murodxo'ja, Odil naynov, Shukur mo'ylov, Hoshimjon kabi jirkanch shaxslar ham yuqoridagi toifadan ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

" – Agar ijozat ololsangiz, – dedi Murodxo'ja akaning ortidan ergashib kirgan Shtokman, – tamaki sexi ochardik. Bir qismini harbiyga qadoqlardik, bir qismini papiroq qilib chiqarardik. Daromadli ish. Nomiga rasmiy ruxsat bo'lsa bas.. "

Urush davri – odamlarning yeyishga noni yo'q, kiyimni-ku gapirmasa ham bo'ladi, minglab bolalar qarovsiz kolonnalarda kaltak zarbidan qo'rqib yashayotgan palla, yuzlab xotin-qizlar qorin ochligidan o'g'rilik qilishgacha borayotgan, aybsiz qanchadan qancha juvonlar boquvchisidan ham ajralgani yetmay Sibirga surgun qilinib itdek qiynalayotgan damda bu jirkanch iblislar nimani o'ylashyapti? Eh, ming afsuski, bunday maxluqlar, albatta, topilgan.

Boshiga tushmagan ko'rgilik, his qilib ko'rmagan dardi qolmagan Oynisaning ruhiyati bora-bora shunaqangi achinarli darajaga kelib qoladi :

"Hayotda qoqilaverib Oynisa hamma narsadan hadiksiraydigan bo'lib qolgan, hatto ayon omaddan ham ketidan bir ko'ngilsiz voqeа yuz beradi deb qo'rqadi, quvonishdan, mamnun bo'lishdan cho'chiydi. Bunaqa voqealarni Oynisa boshidan ko'p eshitgani uchun, yaxshi xabar eshitgudek bo'lsa, oqibat yomon bo'lishini yuragi zirqirab kutadi va ko'p hollarda shunday bo'lib chiqadi ham. Shum xabarga odatlanib qolgan Oynisa, yomon voqeа bilan to'qnash kelganida, o'zini yo'qotib, mushkul ahvolga tushmaydi, o'rgangan hodisa deb qaraydi, ma'lum darajada musibatni qarshi olishga tayyor turadi..."

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

Asar oxirida ular erishgan ozodlik esa, “...qo‘qisdan paydo bo‘lgan saman otdek edi – uni minib ham bo‘lmas, voz kechish ham mumkin emas edi”, – deya tasvirlanadi. Shu o‘rinda yozuvching badiiy mahoratini ham yaqqol sezamiz.

Asar so‘ngida qahramonlarmiz, jumladan, Oynisa ham hayot faqat gullardan iborat emasligi, tikaniga ham bardosh berish kerakligi, qancha shafqatsiz bo‘lmasin nolish befoyda ekanligini tushunib yetadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Isomiddinov Z. Ikki ayol.//Tafakkur, 2007, 4-son/47-bet.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018, 98-bet.
3. Jo‘rayeva M. Zamonaviy o‘zbek nasrida yangi inson konsepsiysi. Toshkent “Mumtoz so‘z” nash. 2021-y. 12-bet.
4. Jo‘rayeva M., Hoshimova G. Abduqayum Yo‘ldoshev qissalarida yangi inson konsepsiysi. Farg‘ona , 2022.
5. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem " Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
6. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
7. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
8. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
9. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2018. – T. 7. – №. 4. – C. 47-51.
10. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – C. 235-240.
11. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
12. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
13. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

14. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук, (2), 85-89.
15. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
16. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
17. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
18. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //*The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.
19. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //*The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
20. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
21. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. Интернаука, (15-3), 75-76.
22. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
23. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЙРДА БАДИЙ МАКОН МУАММОСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).
24. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel "Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
25. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.
26. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
27. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL "MASHRAB". In Конференции.
28. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative “Saraton” by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

29. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY “TWICE TWO IS FIVE”. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
30. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
31. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS “THE PICTURE OF DORIAN GRAY” AND “THE MAN AT THE MIRROR”. *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
32. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
33. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work // Badiy asar syujetida ritm ko'inishlari. // International Journal of Innovative Research. – India, June, 2021, – P. 8355-8357.